
ZIYORAT HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING SMART MODELI

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institute 3-bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273380

Bugungi kunda ziyorat turizmi O‘zbekiston turizm salohiyatida strategik yo‘nalish bo‘lib, diniy-madaniy meros obyektlari joylashgan hududlarning iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ziyoratchilar oqimining ortishi yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish imkonini bermoqda. O‘zbekistonda turizmning istiqbolli: ziyorat, tarixiy-madaniy, rekreatsion, ta’lim, gastronomik yo‘nalishlarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 58-bandida mamlakatimizda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish masalasi va mazkur masala doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan[1]. Ulardan biri esa ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishdan iborat.

Shu sababli, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buni sohadagi statistik ko‘rsatkichlarning izchil o‘sib borayotganidan ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2015-2024-yillar kesimida O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar hamda ziyorat turizmi maqsadida amalga oshirilgan tashriflar (ming nafar)[2]

1-rasmdagi statistik ma’lumotlar tahlili quyidagi muhim tendensiyalarni ochib beradi: 2015-yilda ziyorat turizmi maqsadida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 211 ming kishini tashkil etgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida: [2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son] // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. — 2023. — 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,6 million kishiga yetdi. Bu esa o‘tgan davr mobaynida ziyorat turizmi oqimining 7,5 barobardan ziyodroqqa oshganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, inqirozdan keyingi tiklanish sur’atiga e’tibor qaratadigam bo‘lsak, 2020-yildagi global pandemiya cheklovlari natijasida barcha turizm yo‘nalishlarida pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da (umumiy oqim 6,7 milliondan 1,5 million kishiga tushgan), ziyorat turizmi 2021-yildan boshlab barqaror tiklanish tendensiyasini namoyish etdi. 2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonga tashrif buyurgan jami 10,2 million kishidan 1,6 million nafari aynan ziyorat maqsadida kelganligi, mazkur yo‘nalishning umumiy turizm bozoridagi ulushi salmoqli ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq, Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o‘tkazilgan maxsus so‘rovnoma natijalari ziyorat turizmini rivojlantirishda faqat iqtisodiy samaradorlikka emas, balki “Smart” (aqlli) boshqaruv tizimlariga asoslangan barqarorlikka ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. So‘rovnomada ishtirok etgan 240 nafar respondentning fikrlari tahlil qilinganda, bir qator tizimli muammolar aniqlandi:

1) axborot yetishmasligi: respondentlarning 11,7 foizi o‘z hududidagi ziyoratgohlar haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Bu aholining turizm jarayonlaridan uzilib qolganligini anglatadi;

2) ekologik va infratuzilma bosimi: respondentlarning 33,8 foizi atrof-muhit ifloslanishini, 17,5 foizi esa transport tirbandligi va shovqinni asosiy muammo sifatida qayd etgan. Mavjud infratuzilma faqatgina 28,3 foiz aholi tomonidan “yetarli” deb baholangan.

3) iqtisodiy manfaatlar taqsimotidagi nomutanosiblik: garchi 84,6 foiz aholi turizmning ijobiy ta’sirini e’tirof etsa-da, daromadlarning barcha tabaqalar o‘rtasida adolatli taqsimlanmayotgani ta’kidlangan;

4) inklyuzivlik muammosi: ziyoratgohlarda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sharoitlar 14,2 foiz holatda umuman mavjud emas, 45 foiz holatda esa qisman yaratilgan deya qayd etilgan.

Yuqoridagi muammolar ziyorat turizmini boshqarishda an’anaviy usullardan voz kechib, hududni rivojlantirishning Smart modeliga o‘tish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bugungi kunda ziyorat turizmi boshqaruvidagi asosiy maqsad – raqamli texnologiyalar yordamida mahalliy aholi, ziyoratchilar va davlat organlari o‘rtasida samarali vertikal va gorizontal muloqotni ta’minlovchi yagona ekotizim yaratish strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur strategiyani ishlab chiqish uchun esa, avvalambor, smart tizimning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatli tajribasini tahlil qilish lozim.


Smart turizm modellari bugungi kunda asosan texnologik rivojlangan va sayyohlar oqimi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda “Smart Destination” (Aqlli manzil) konsepsiyasi ostida amalga oshirilmoqda, masalan, Ispaniyadagi SEGITTUR modeli. SEGITTUR dunyodagi eng ilg‘or tajriba hisoblanadi[3]. Ispaniya hukumati 500 dan ortiq yo‘nalishni birlashtiruvchi “Aqlli turistik manzillar tarmog‘i”ni yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Mazkur modelning eng asosiy yutug‘i turizm boshqaruvida beshta ustun (Boshqaruv, Texnologiya, Innovatsiya, Barqarorlik va Ochiqlik) asosida real vaqt rejimida qaror qabul qilinishidir. Bundan tashqari, bevosita ziyoratga oid smart boshqaruv modelini Saudiya Arabistoni tajribasida ko‘rishimiz mumkin (Haj va Umra raqamli ekotizimi). Saudiyada “Vision 2030” doirasida ziyoratchilar oqimini sun’iy intelekt orqali boshqarish, transport tirbandligini 30% gacha kamaytirish va har bir ziyoratchiga shaxsiy “Smart Card berish tizimi yo‘lga

[3] SEGITTUR. Guide to Smart Tourism Destinations: Building the future of tourism. — Madrid: Ministry of Industry, Commerce and Tourism of Spain, 2023. — 120 p.

qo‘yilgan[4]. Yana bir misol sifatida Niderlandiyani keltirish mumkin. Niderlandiya “City Card” tizimi orqali sayyohlar oqimini markazdan chekka hududlarga yo‘naltirishga erishgan[5]. Natijada shaharning tarixiy markazidagi yuklama kamayib, mahalliy aholining yashash sifati yaxshilangan (overtourism muammosi hal qilingan).

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Smart model resurslarni tejash (aqlli yoritish va chiqindilarni boshqarish tizimlari orqali kommunal xarajatlar 20-25% ga qisqaradi), oqimni boshqarish (“Big Data” tahlili orqali ziyoratgohlardagi tirbandliklar oldindan prognoz qilinadi va sayyohlar oqimi muvozanatlashtiriladi), aholi turmush tarzini yaxshilash (turizmdan tushadigan daromadlarning bir qismi raqamli platformalar orqali bevosita mahalliy tadbirkorlarga (hunarmandlar, mehmon uylari) yo‘naltirilishi aholining sohaga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi) kabi vazifalarni bajaradi.

O‘zbekistonda ziyorat hududlarida Smart modelni joriy etishning SWOT tahlili ushbu strategiyaning nafaqat imkoniyatlarini, balki mavjud to‘siqlarni ham real baholashga yordam beradi.



2-rasm. O‘zbekistonda smart model joriy etilishining SWOT tahlili[6]

Ushbu modelning kuchli tomonlari sifatida davlat darajasidagi raqamlashtirish siyosati, boy madaniy-diniy meros obyektlarining mavjudligi va aholining sohaga nisbatan yuqori ijobiy munosabatini (87,5%) ko‘rsatish mumkin. Biroq, hududlarda internet qamrovining pastligi, infratuzilmaning qoniqarsiz holati va aholining 11,7 foizida raqamli savodxonlik yetishmasligi tizimning kuchsiz tomonlari hisoblanadi. Shunga qaramay, ziyoratchilar oqimini raqamli boshqarish orqali ekologik yuklamani kamaytirish va mahalliy aholini yagona platformaga birlashtirish orqali daromadlarni oshirish kabi ulkan imkoniyatlar mavjud. Mazkur jarayonda an’anaviy boshqaruv uslubidan voz kechishga bo‘lgan qarshilik, kiberxavfsizlik masalalari hamda ekologik

[4] Vision 2030: Pilgrimage Experience Program [Elektron resurs] // Official Portal of Saudi Vision 2030. — URL: https://www.vision2030.gov.sa/v2030/v2030-projects/pilgrimage-experience-program/
[5] I amsterdam City Card: Official smart tourism tool for Amsterdam [Elektron resurs]. — URL: https://www.iamsterdam.com/en/see-and-do/city-card
[6] Muallif ishlanmasi.

muammolarning (33,8% respondent shikoyati) texnologik yechimlardan tezroq o‘sishi asosiy xavf-hatarlar sifatida talqin etilishi lozim.

Mamlakatimizda joriy etilishi taklif etilayotgan model quyidagi 4 ta ustun (mezon) ustiga qurilishi lozim:

1. Integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasi (Big Data): ziyoratgohga keluvchilar soni, vaqti va ehtiyojlarini tahlil qiluvchi markaz.

2. Interaktivlik va ochiqlik (E-Participation): mahalliy aholining qaror qabul qilishda ishtirokini ta’minlovchi raqamli ovoz berish modullari (Respondentlarning 92,5% ishtirokni xohlaydi).

3. Barqaror resurs boshqaruvi (Smart Utility): suv, elektr va chiqindilarni datchiklar orqali nazorat qilish.

4. Iqtisodiy inkluzivlik (Digital Marketplace): mahalliy aholi mahsulotlarini vositachilarsiz sotish imkonini beruvchi platforma.

Ziyorat turizmi hududlarini rivojlantirishda smart modelning tatbiq etilishi an’anaviy turizmni yuqori texnologik va ijtimoiy mas’uliyatli ekotizimga aylantirish imkonini beradi. O‘tkazilgan so‘rovnoma tahlili va xalqaro tajriba sintezi shuni ko‘rsatadiki, raqamli integratsiya strategiyasi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

Birinchidan, aholining turizm boshqaruvidagi ishtiroki raqamli platformalar orqali ta’minlanishi natijasida respondentlarning 92,5 foizi kutayotgan “hamjamiyat ishtiroki” amalda o‘z ifodasini topadi. Bu aholining sohaga bo‘lgan ishonchini va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Ikkinchidan, Digital Marketplace modullari orqali mahalliy hunarmandlar va xizmat ko‘rsatuvchilarning ziyoratchilar bilan bevosita aloqasi o‘rnatiladi. Bu esa turizm daromadlarining pastki bo‘g‘inlargacha adolatli kirib borishini ta’minlaydi va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytiradi. Uchinchidan, IoT (Internet of Things) sensorlari orqali havo tozaligi va chiqindi oqimini nazorat qilish, respondentlarning 33,8 foizini qiynayotgan ekologik muammolarni 20-30 foizga kamaytirish imkonini beradi. To‘rtinchidan, ziyoratchilar oqimini Big Data tahlili orqali prognozlash infratuzilmaga (transport, servis) tushadigan yuklamani optimallashtiradi va ziyoratgohlarning “tarkibiy sig‘imi”ni (carrying capacity) saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ziyorat turizmini raqamli Smart model asosida rivojlantirish – bu nafaqat texnologik yangilanish, balki mahalliy aholi manfaatlarini ustuvor deb biluvchi barqaror taraqqiyot yo‘lidir. Ushbu modelni pilot loyiha sifatida yirik ziyorat markazlarida (masalan, Samarqand yoki Buxoro mahallalarida) sinovdan o‘tkazish va keyinchalik respublika miqyosida ommalashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida: [2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son] // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. — 2023. — 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
2. SEGITTUR. Guide to Smart Tourism Destinations: Building the future of tourism. — Madrid: Ministry of Industry, Commerce and Tourism of Spain, 2023. — 120 p.
3. Vision 2030: Pilgrimage Experience Program [Elektron resurs] // Official Portal of Saudi Vision 2030. — URL: https://www.vision2030.gov.sa/v2030/v2030-projects/pilgrimage-experience-program/

4. I amsterdam City Card: Official smart tourism tool for Amsterdam [Elektron resurs]. — URL: https://www.iamsterdam.com/en/see-and-do/city-card